

The Influence Of East And West Literature Each Other As The Sample Of Goethe's " Egmont" And Oybek's " Qutlug Qon" Novels

Masodiqova Zulfiya Hamdamovna
Alieva Nargiza Nodirovna
Yangiboyeva Shohsanam Shavkatjon qizi
Kokand state pedagogical institute named after Mukumi

ANNOTATION

In this article the similarities of Goethe's "Egmont" and Oybek's "Qutlug' qon" will be analyzed. The idea that the fight for freedom does not choose any nation and country has been proved. The inspiration and learning from East and West countries one another has been opened with examples.

Keywords: Goethe, Egmont, Aibek, "Overhung Shelter", people, state, East, West

“Mening niyatim G’arb bilan Sharqni, o’tmish bilan hozirgi zamoni, forsiy bilan nemisga aloqador narsalarni zavq-shavq bilan bir-biriga bog’lash, hamda ularning urf-odatlarini, fikrlash tarzini o’zaro bir-biriga bog’liq olib qarash, birini ikkinchisi orqali tushunishdir”
Gyote

Asrlar davomida Buyuk Ipak yo’li Sharq va G’arbni bir-biriga bog’lab, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotida muhim o’rin tutgan. Ipak yo’li vositasida ilmiy, badiiy asarlar bir yurtidan boshqa yurtlarga olib borilgan, tarjima qilingan. G’arb va Sharq olimlari shu yo’l bilan bir-birlaridan o’rganib kelishgan. Masalan, Germaniyada Sharq mutafakkirlarini qanchalik bilishsa, Sharqda ham xorijlik mutafakkirlarni shunchalik bilishgan.

Buyuk olmon shoiri, yozuvchisi, dramaturgi Yohan Volfgang Gyote 1749-yil 28-avgustda Germaniyaning Frankfurt shahrida tavallud topgan. U davlat arbobi bo’lgan va adabiyotshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib brogan. Ulug’ shoir romansitsizm va sentimetalizm yo’nalishlarida ijod etgan, U fojia, drama, epik doston, roman kabi janrlarda mahorat bilan qalam tebratgan. Yangi davr nemis adabiyotining asoschisi bo’lgan Gyote ijodini XVIII asrning 70-80-yillarida

Germaniyada mavjud bo'lgan "Bo'ron va Hujum" adabiy harakatida ishtirok etishdan boshlagan. Shu davrda U "Gets fon Berlixingen"(1773) va "Prometey" kabi dramalar va lirik she'rlar yaratdi. Bundan tashqari adib "Yosh Verterning iztiroblari", "G'arb-u Sharq devoni", "Faust", asarlarini, "Egmont", "Torkvatto Tasso" kabi dramalarni shuningdek "She'riyat va Haqiqat" avtobiografik kitobini yozgan. Yozuvchi "Vilgelm Maysterning o'qish yillari", "Vilgelm Maysterning darbadarlik yillari" kabi romanlarida inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat masalalarini aks ettirgan. Gyote Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati va adabiyotini chuqur o'rgangan. Adib Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Nizomiy, Hofiz, Jomiy, Sa'diylarning ijod chashmasidan bahramand bo'ladi. Shu bilan birga Gyote Alisher Navoiy, Ibn Sino, Ulug'bek ijodini nemis tilidagi tarjimalari bilan tanishadi. Sharq she'riyatidan ilhomlangan shoirida "Mag'rib-u Mashriq devoni", ya'ni "Sharq va G'arb devoni"ni yaratdi. Devon "Mug'anniyнома", "Hofizнома", "Ishqнома", "Tashriqнома", "Ranjнома", "Xikmatнома", "Temurnома", "Zulayhonома", "Soqiynома", "Matalнома", "Forsiynома", "Xuldnома" kabi 12 bo'limdan iborat. Bu devonda "bulbul", "hur", "mug'anniy" , "fatvo", "mufti", "tilsim", "mirzo", "darvesh" kabi so'zlarni asliyatda qo'llaydi.

Gyotening "Faust" fojeasi jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri hisoblanadi. Asarda shoir sevgi - muhabbatga, ayollar go'zalligiga doir sharqona so'zlardan mahorat bilan foydalangan. Bundan tashqari quyidagi jumlada sharqona "ol", "barkamol" kabi sifatlardan foydalanadi.

Go'zallik ne, agar ul
Bo'lsa bir sovuq shisha,
Go'zallikning hamisha
Kulib turgani ma'qul
Go'zal ul - yanog'ida

Jilva qilib tursa ol¹

Gyotening boy adabiy merosida “Egmont” fojeasi alohida mavqega ega. Bu asarda shoir ijodiga xos romantik pafos, qahramonona ruh ustuvorlik qiladi.

Azob tugab, uni
Quchadi shafqat
Va baxtiyorlik,
Faqat muhabbat.
Baxt-u bahor bilan
Sevgi-muhabbat²

Gyote ijodi, falsafasi bamisli ummom. Bu ummonga sho’ng’igan inson dur-u javohirlarni, yashirin xazinalarni, bir- birini takrorlamaydigan marjon qoyalarni topadi:

“Davlatینگdan ayrilsang - ko’p narsa o’qotmaysan, nomusingdan ayrilsang - ancha narsa yo’qotasan, mardligingdan ayrilsang-hamma narsangdan mahrum bo’lasan.”³ „Nafsi tiyiq halol odam olg’ir – ucharlarning butun nayranglarini ko’pincha yaqqol ko’rib turadi.“⁴

„Aql va vijdonni o’z huquqlaridan mahrum etib bo’lmaydi. Ularga yolg’on gapirish mumkin-u ammo ularni aldash qiyin.“⁵

„Inson bo’lish- kurashchi bo’lmoqlikdir.“⁶

„Germaniya mening qalbim uchun ham benihoya qimmatlidir. Qaysi sohada ishlamaylik va qanday vazifada bo’lmaylik, baribir har birimizning muqaddas

¹ Naim Karimov „Egmont, Gyote va Usmon Nosir“ www.Google.com.

² Naim Karimov „Egmont, Gyote va Usmon Nosir“ www.Google.com.

³ „Tafakkur gulshani“ 260 bet. Toshkent. G. G’ulom nashriyoti.1989.

⁴ „Tafakkur gulshani“ 266 -bet. Toshkent. G. G’ulom nashriyoti.1989.

⁵ „Tafakkur gulshani“ 274-bet. Toshkent. G. G’ulom nashriyoti.1989.

⁶ „Gyote Hikmatlar“45, 46 -bet. A.X.Saidov Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti. 2010

vazifamiz- xalqimizni har tomonlama tarbiya qilishga butun kuch va qobiliyatimizni sarflashdan iboratdir, toki u boshqa xalqlardan orqada qolmasin.“⁷

„She’riyat ayrim nozikta’b va tarbiyali kishilarga avloddan-avlodga meros bo’lib o’tadigan xususiy mulk emas, balki jumlai jahonga, barcha xalqlarga xos iste’dod mevasidir.“⁸

„Dunyo qanday bo’lsa, shundayligicha qoladi, voqealar takrorlanadi, bir xalq boshqa xalqlar singari yashaydi, sevadi va his etadi: shunday ekan, nima chun bir shoir boshqa shoir singari yozishi mumkin emas?“⁹

G’arb adabiyoti Sharqning ta’sirida boyidi, gullab yashnadi, ildamlab ketdi, lekin XX asrning boshlarida sharq ijodkorlari G’arb adabiyotini o’rganish, tarjima qilish jarayonida G’arb madaniyati, adabiyoti, falsafasi bilan yaqindan tanishdi. Bu ularning asarlariga samarali ta’sir ko’rsatdi. Sharqning taniqli shoir va yozuvchilari nafaqat nodir asarlarni yaratgan balki tarjimonlik bilan ham jiddiy shug’ullangan. Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek 1905-yilning 10-yanvarida Toshkent shahrida tug’ilgan. O’z davrining zabardast shoiri, yozuvchisi, tarjimon, davlat arbobi va yetuk navoiyshunos olimi edi. Uning 20 tomlik „Mukammal asarlar“ to’plamida: „Oltin vodiyan shabadalar“, „Qutlug’ qon“, „Ulug’ yo’l“, „Quyosh qoraymas“, romanlari: „Nur qidirib“, „Bolalik“, „Bola Alisher“ qissalari, talaygina she’r va dostonlari shuningdek Gyotening „Faust“, Dantening „Ilohiy komediya“, Bayronning „Kain“, Lermontovning „Maskarat“, Pushkinning „Yevgeni Onegin“, arman xalq eposi „Sosunli Dovud“ dostoni va boshqa ko’plab asarlar tarjima qilgan.

Oybek o’z ijodida Gyotega xos romantik pafos, qahramonona ruhni „Qutlug’ qon“ romanidagi Yo’lchi siymosida aks ettirgan. Yo’lchi harakteri Graf Egmont obrazi ta’sirida yaratilgan. Gyotening „Egmont“ asaridagi Graf Egmont- tarixiy

⁷ „Gyote Hikmatlar“45, 46 -bet. A.X.Saidov Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti. 2010

⁸ „Gyote Hikmatlar“45, 46 -bet. A.X.Saidov Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti. 2010

⁹ „Gyote Hikmatlar“45, 46 -bet. A.X.Saidov Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti. 2010

shaxs bo'lgan. Uning hayoti va faoliyati Niderlandiyaning Ispan hukumronligiga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq. Gyote o'z asarini yozish jarayonida Egmont obrazini qayta idrok etdi: qirolga sodiq bu insonni el-yurtning ardoqli farzandi, Niderland milliy harakterining jonli tajassumi sifatida talqin qildi. Graf Egmontning o'lim sahnasi uchun berilgan tarif : „Bu qon erk oyog'i ostida tuproqni qip-qizil qilib bo'yadi. Bu sening qoning Egmont! Bu ko'plarning qoni-erk sevuvchilarning qoni!“-degan sado yangradi. Bu qon behuda to'kilmadi. Bu qon ozodlik uchun to'kilgan qutlug' qondir. Sening qoning tabarruk bo'ladi, Egmont! Qo'zg'ol, xalqim, qo'zg'ol, seni zafar kutadi! Sen dengizdek ulug'vor xalqsan, dengizdek qudratli va qo'rqinchlisan! Sen dengiz to'foni kabi to'siqlarni parchalab tashlaysan!“¹⁰ Oybekning „Qutlug' qon“ asaridagi Yo'lchining o'limi sahnasida ham shunday ta'rif Shokir ota tilidan keltirilgan: „Yo'lchining o'limi uncha –muncha o'lim emas. Bu juda katta o'lim. Yo'lchi o'g'lim nima uchun, kim uchun qon to'kdi? O'zi uchun emas xalq uchun yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to'kdi. Bu qon eng qutlug', eng muborak, eng sof qon... Bunga gumonim yo'q. Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi... Yo'lchining qoni behuda ketmaydi, sira behuda ketmaydi. Bu hikmatli qon, qutlug' qondur. Unda sir ko'p“¹¹ Gyote va Oybekning qaramonlarining oxshash jihatlari shundaki, ular zulmga, zo'rlikka qarshi qo'zg'olgan xalqqa qo'shilishi ham bu to'daning yetakchisiga aylanib qolishi ham ularning tabiatidagi kurahchanlik va adolatga tashnalik tuyg'usidan. Muhimi shuki, adolatga intilgan odam kuchli bo'ladi. Amir Temur „Kuch – adolatda“ - degan. Yo'lchi va Egmontning mushtarak tomonlari shundaki, ular o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan qaytmadi, bu kurashda xalok bo'ldi. Har ikki

¹⁰ -“Egmont”. Moskva: Rosglavpoligrafprom, 1969.

¹¹ Oybek- “Qutlug' qon”. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti. 1966. 320-bet

asardagi o‘xshashlik ko‘chirmakashlik emas, balki ma‘naviy o‘zuqa olish, bir-biridan o‘rganish va izlanish samarasidir.

Oybek 1928-yil 16-noyabrda rafiqasi Zarifa Saidnosirovaga Leningraddan yozgan xatida: „Shu kunlarda Tsveyg degan nemis yozuvchisining majmuasini, Sharq va G‘arb falsafasini, nemis shoirlarining asarlarini o‘qiyapman“- degan.¹² Adib G‘arb adabiyotini chuqur o‘rgangan va bu uning asarlarida o‘z askini topgan. U hayotdagi adolatsizlikni, zulm- zo‘rlilikni ko‘rib, voqealarni sinchiklab kuzatgan. Dunyo adabiy tajribalaridan xabardor bo‘lgan kuchli bilim va qalb egasi Oybek romanni olti oyda yozib tugatgan.

El-yurt o‘zligini o‘z hayotidan ham ustun qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan bobolarimiz butun xalqimizning iftixoriga aylangan. Buyuk valiy Najmiddin Kubro ulug‘ yoshda bo‘lishiga qaramasdan, Chingiz lashkariga qarshi mardonavor jangga kirgani, vatan bayrog‘ini uning qo‘lidan tortib ololmagan yovuz bosqinchilar u zot halok bo‘lganidan keyin qo‘lini kesib, bayroqni olishgani tillarda doston bo‘lib keladi. Bunday beqiyos jasorat bugungi kunda ham yosh avlodimizni vatanga muhabbat va sadoqat bilan yashash, uni mardona himoya qilish yo‘lida buyuk ibrat namunasi bo‘la oladi.”¹³

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki, toki Ona vatanga bo‘lgan muhabbat mavjud ekan, unga shaydo insonlar mavjud ekan, bunday asarlarga bo‘lgan e‘tibor kamaymaydi va ular barhayot bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹² Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” Toshkent. 1994. 109-bet.

¹³ Shavkat Mirziyoyev. „Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz“ Toshkent. „O‘zbekiston“ nashriyoti. 242-bet.



1. Shavkat Mirziyoyev. „Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz “ Toshkent. „O‘zbekiston “ nashriyoti. 242-bet.
2. Oybek- “Qutlug‘ qon”. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti. 1966. 320-bet
3. Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” Toshkent. 1994. 109-bet.